



№453, 5-yanvar, 2022 y.

**COVID-19 ga qarshi vaksinalarning  
ishlanmalari bo'yicha**

**DAYJEST**

O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi

# Jahonda pandemiya bilan bog'liq vaziyat

2022 y. 4-yanvar holatiga ko'ra

Umumiy zararlanganlar soni	-	293 328 058	(+ 1 459 528)
Sog'ayganlar soni	-	255 351 966	(+ 667 422)
Vafot etganlar soni	-	5 466 730	(+ 4 676)

## Mamlakatlar bo'yicha bemorlar soni

	AQSh	-	57 473 024	(+ 515 250)
	Hindinston	-	34 960 261	(+ 37 379)
	Braziliya	-	22 305 078	(+ 11 850)
	Buyuk Britaniya	-	13 422 796	(+ 157 751)
	Rossiya	-	10 554 309	(+ 16 343)
	Turkiya	-	10 317 819	(+ 67 461)
	Fransiya	-	9 597 670	(+ 44 869)
	Germaniya	-	7 235 135	(+ 26 345)
	Eron	-	6 667 511	(+ 93 190)
	O'zbekiston	-	199 271	(+ 89)

Manba: <https://www.worldometers.info/coronavirus/>

# Yaponiya insonni hayoti davomida COVID-19 dan himoya qiluvchi vaksina yaratdi



Tokiodagi Yaponiya tibbiyot fanlari instituti professori Michinori Koxara boshchiligidagi olimlar insonlarni butun umri davomida koronavirusdan himoya qiluvchi COVID-19 vaksinasini ishlab chiqmoqda [2]. Bunga 18-asrda ishlab chiqilgan chechakka qarshi vaksina asos bo'lgan. Yaponiyalik oimlarning g'oyasi SARS-CoV-2 virusining spayk oqsilini

o'z ichiga olgan rekombinant vaksiniya virusini yaratishdir [3].

Ma'lum qilinishicha, COVID-19 ga qarshi mavjud vaksinalar og'ir kasallikning oldini oladi va o'lim xavfini kamaytiradi, ammo emlashdan olti oy o'tgach, antitanalar soni kamayadi, shu sababli vaksinaning kuchaytiruvchi dozalaridan foydalanish talab etiladi [4].

Aksincha, yapon oimlari tomonidan yaratilgan vaksina uzoq muddatli himoyaga ega bo'ladi. Ularga ko'ra, preparatni qo'llashdan keyin antitanalar bir hafta ichida ishlab chiqilishi va kuchli immunitetga olib kelishi kerak.

Sichqonlarda va primatlarda o'tkazilgan sinovlarda rekombinant vaksina ijobiy natijalarni ko'rsatdi. Preparatni ishlab chiqarishdan avval klinik sinovlarning ikki bosqichini odamlarda o'tkazish kerak va bu 2023-yilning birinchi yarmida rejalashtirilgan.

Agar samaradorlik va xavfsizlik tasdiqlansa, sinovlarning yakuniy bosqichi darhol boshlanadi, ammo vaksina 2024-yilgacha bozorga chiqarilmaydi.

"Men adenovirus va RNK vaksinalari kabi turli xil vaksina texnologiyalari ustida ishladim, ammo vaccinia virusi vektoridan foydalanadigan dorilar eng kuchli hisoblanadi", dedi Kohara The Japan Times nashriga. Bundan tashqari, uning fikricha, ushbu turdag'i vaksina, kam ta'sirga ega va maxsus tashish va saqlash usullarini talab qilmaydi [5].



# Turkovac vaksinasi koronavirusining Omicron shtammidan himoya qiladi

Turkiya vaksina instituti direktori, mamlakat Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Koronavirus bo‘yicha ilmiy kengash a’zosi, professor Atesh Kara mahalliy "Turkovac" preparati koronavirusning yangi Omikron shtammidan himoya qilishini ma’lum qildi [6].

Kara Anadolu axborot agentligi muxbiri bilan suhabatda butun dunyo bo‘ylab tez tarqalayotgan Omicron shtammi Turkiyada ham qayd etilganini ta’kidladi. Uning so‘zlariga ko‘ra, "Omicron" koronavirusning boshqa shtammlariga nisbatan ko‘proq yuqumli hisoblanadi. "Omicron katta xavf bilan bog‘liq, chunki u tez tarqaladi va bu kasallikning keskin o’sishiga olib keladi. U avvalgi Delta shtammidan deyarli ikki baravar tez tarqaladi", dedi Kara.



Shu bilan birga, Kara Turkovac vaksinasining samaradorligini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar davom etayotganini aytdi [7]. U aholining turk vaksinasiga bo‘lgan yuqori ishonchidan mammunligini bildirdi.



"Biz erishgan antitana darajalari Omicron shtammidan himoya qiladi. Bu boradagi izlanishlarimiz davom etmoqda. Agar Turkovacni bizning ma’lumotlarimizga ko‘ra baholasak, vaksina Omicron shtammidan himoya qilishga qodir, ammo bu himoya qancha davom etishini hozir aytish qiyin», dedi u.

Turkovac vaksinasi 2021-yil dekabr oyi oxirida butun Turkiya bo‘ylab favqulodda foydalanish uchun tasdiqlangan [8].

# Belarusian COVID-19 ga qarshi vaksinasi dastlabki sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi

Belarusian COVID-19 ga qarshi vaksina prototipi dastlabki sinovlardan muvaffaqiyatli o'tdi. Natijalar hayvonlar ustida o'tkazilgan dastlabki tadqiqotlar ko'rsatdi [9].

Preparat Belarusda COVID-19 ning oldini olish uchun yaratilgan birinchi inson vaksinasidir. Uni ishlab chiqishda Respublika epidemiologiya va mikrobiologiya ilmiy-amaliy markazi hamda Milliy fanlar akademiyasining Biofizika va hujayra muhandisligi instituti ishtirok etmoqda.




"Bu ikki dozali, butun virionli inaktivlangan vaksina Xitoyning Sinovac preparati prinsipi asosida joriy qilingan. Koronavirus hujayra madaniyatida yetishtirilgan. So'ng u kimyoviy usul asosida faolsizlantiriladi va insonlarga ma'lum miqdorda yuboriladi va preparat organizmda immunitet reaksiyasini keltirib chiqaradi ", dedi Respublika ilmiy va patogen mikroorganizmlar to'plamiga ega Epidemiologiya va mikrobiologiya amaliy markazi bioxavfsizlik laboratoriysi rahbari Anatoliy Krasko [10].

# Ukrainada COVID-19 vaksinalarining kombinatsiya sxemalari o'zgartirildi

Ukraina Sog'liqni saqlash vazirligi koronavirusga qarshi vaksinalarni kombinatsiya sxemasiga o'zgartirishlar kiritdi. Xususan, birlamchi va kuchaytiruvchi vaksinalar uchun. Bu haqda vazirlik matbuot xizmati xabar berdi [11].

Shunday qilib, o'zgarishlarga ko'ra, Sinovac Biotech kompaniyasining CoronaVac vaksinasi endilikda vektor (AstraZeneca) va mRNK vaksinalari (Pfizer-BioNTech'dan Modern yoki Comirnaty) bilan aralshtirilishi mumkin. Bundan tashqari, AstraZeneca vaksinasi endilikda Moderna yoki Pfizer vaksinalaridan keyin ham qo'llanilishi mumkin [12, 13]. Vazirlik buyrug'iga ko'ra, turli xil vaksinalardan foydalanishning quyidagi sxemalaridan foydalanish mumkin:

- inaktivlangan vaksinaning birinchi dozasi (CoronaVac / Sinovac) + ikkinchi vektor vaksinasi (AstraZeneca) yoki mRNK (Pfizer, Moderna);
- vektor vaksinasining birinchi dozasi (AstraZeneca) + ikkinchi mRNK vaksinasi (Pfizer, Moderna);
- mRNK vaksinasining birinchi dozasi (Pfizer, Moderna) + vektor vaksinasining ikkinchi dozasi (AstraZeneca).



1. Reported Cases and Deaths by Country, Territory, or Conveyance //  
<https://www.worldometers.info/coronavirus/> (04.01.2022)
2. Tokyo researchers work toward 'dream' COVID-19 vaccine that gives protection for life //  
<https://www.japantimes.co.jp/news/2021/12/29/national/science-health/one-shot-lifetime-covid-vaccine> (04.01.2022)
3. Японские ученые придумали вакцину от COVID-19 с пожизненной эффективностью //  
<https://www.gazeta.ru/social/news/2022/01/01/17092105.shtml> (04.01.2022)
4. В Японии создают пожизненную вакцину от коронавируса //  
<https://gloss.ua/sobytiya/137109-v-japonii-sozdajut-pozhiznennuju-vaktsinu-ot-koronavirusa> (04.01.2022)
5. В Японии разрабатывают вакцину от коронавируса, дающую пожизненный иммунитет //  
<https://tass.ru/obschestvo/13343461> (04.01.2022)
6. Вакцина TURKOVAC обеспечивает защиту от омикрон-штамма коронавируса //  
<https://www.trend.az/world/turkey/3536198.html> (04.01.2022)
7. Вакцина TURKOVAC обеспечивает защиту от омикрон-штамма коронавируса //  
<https://inlnk.ru/n0d01k> (04.01.2022)
8. Турецкая вакцина от COVID-19 обеспечивает защиту от омикрона: эксперт //  
<https://covid19turkey.com/ru/turkovac-can-provide-protection-against-the-omicron-variant-of-coronavirus-expert/> (04.01.2022)
9. Белорусская вакцина от коронавируса безопасна — в НАН завершились предварительные испытания прототипа // [https://www.sb.by/articles/ukol-v-serdtse-virusa-vakcina.html?utm\\_source=yxnews&utm\\_medium=desktop](https://www.sb.by/articles/ukol-v-serdtse-virusa-vakcina.html?utm_source=yxnews&utm_medium=desktop) (04.01.2022)
10. Белорусская вакцина от COVID-19 успешно прошла предварительные испытания //  
[https://mogilev.online/2022/01/03/227829.html?utm\\_source=yxnews&utm\\_medium=desktop](https://mogilev.online/2022/01/03/227829.html?utm_source=yxnews&utm_medium=desktop) (04.01.2022)
11. В Україні змінили змішані схеми вакцинації від COVID-19 на такі //  
<https://t.me/mozofficial/2036> (04.01.2022)
12. В Украине изменили схемы комбинирования вакцин от COVID-19 //  
<https://health.unian.net/country/v-ukraine-izmenili-shemy-kombinirovaniya-vakcin-ot-covid-19-novosti-ukrainy-11662189.html> (04.01.2022)
13. В Украине изменили схемы комбинирования вакцин против Covid-19 //  
<https://health.fakty.com.ua/ru/novyny/v-ukrayini-zminyly-shemy-kombinuvannya-vakcyn-protiv-covid-19/> (04.01.2022)



O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi  
Ilmiy-texnik axborot markazi